




O'QUVCHILARDA AQLIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BOLALAR FOLKLORI BILAN UYG'UNLIGI

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna

FarDU, f.f.f.d (PhD), dotsent

Axmedova Muborakxon Jamoliddin qizi

FarDU, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12289671>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 6-iyun 2024 yil
Ma'qullandi: 9-iyun 2024 yil
Nashr qilindi: 22-iyun 2024 yil

KEY WORDS

Aqliy rivojlanish, Bolalar xalq og'zaki ijodi, Kognitiv o'sish, Hissiy o'sish, Pedagogika, Ta'lim o'quv dasturi, Xotirani kuchaytirish, Xalq qo'shiqlari.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada o'quvchilarning aqliy rivojlanishining kesishishi va bolalar folklorining ta'siri o'rganiladi. U hikoyalar, qo'shiqlar va o'yinlarni o'z ichiga olgan an'anaviy folklorning yosh o'quvchilarning kognitiv va hissiy rivojlanishiga qanday hissa qo'shishini o'rganadi.

Zamonaviy maktab folklori ko'p janrli va genetik jihatdan rang-barang hodisa bo'lib, unda an'anaviy og'zaki she'riy ijod, badiiy adabiyot va teatr, kinematografiya va turli ko'rsatuvlar, kompyuter o'yinlari, ijtimoiy voqealar va kundalik ayrim tadqiqotchilar, jumladan, Mamasoli Jumaboyev maqol kabi kichik tur namunalarini va ertakni ham bolalar folkloriga kiritishadi: "Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, mehnatkash kishining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'ib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotchi topishmoq janrini ham bolalar folklori sirasiga kiritib, uni quyidagicha asoslaydi: "Qadim-qadim zamonlardan o'zbek xalqi o'z bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergan. O'sha paytlarda hali bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan maktablar yo'q edi. Shuning uchun ham xalq turli o'yinlar o'y lab topgan. Masalan, „Bekinmachoq“, „Chillak“ka o'xshash o'yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik

kabi jismoniy xislatlar paydo bo'la borgan. Xo'sh, o'sha paytda bolalarning zehni charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy o'yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir."

Bolalar folklori keltirganimizdek, kattalar folklorining uzviy bir qismidir. "O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi zamonlarga oid ayrim yodgorliklari ba'zi bir manbalar orqali bizga qadar saqlanib qolgan. Bu manbalar tarix kitoblari, ilmiy asarlar, yozma yodgorliklar va boshqalardan iborat. Antik tarixchilardan Gerodot, Kteziy, Polien, Xares Mitilenskiy va boshqalarning kitoblarida xalq og'zaki ijodining ayrim asarlarining mazmuni hikoya qilib qoldirilgan. Shuningdek, o'rta asr tarixchilaridan Hamza Isfaxoniy, Tabariy, Ma'sudiy, Beruniy va boshqalarning asarlarida ham og'zaki adabiyotga doir qimmatli materiallar va ma'lumotlar bor. "Avesto", "Bexustun", "Bundaxishi", "Denkard" kabi yozma yodgorliklarda og'zaki adabiyotning ba'zi bir namunalari o'rin olgan. Mahmud Koshg'ariy esa o'zining mashhur lingivistik "Devonu lug'otit turk"ida qadimgi qo'shiq, lirik she'r va maqollardan turli namunalar beradi"¹

O'zbek bolalar og'zaki ijodi haqidagi ilk ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltiriladi. Asarda "Ko'chirma o'yin", "O't bandal ", "O'n to'rt ", "Qorag'uni "² kabi o'yinlar haqida ma'lumot beriladi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida A.Borovkov, E. Peshcherova, A.Vamberi kabi evropalik sharqshunos olimlar o'zbek bolalar folkloridan namunalarni yig'ib, o'rganganlar. Sho'rolar davrida esa Hodi Zarifov, Oxunjon Safarov, Fani Jahongirov kabi folklorshunos olimlar bolalar folkloriga oid materiallarni nashr qildilar, ularni o'rganib, ilmiy mulohazalarni keltirdilar. Olimlar ning olib borgan izlanishlari universitet va institut talabalari uchun mo'ljallangan darslik va o'quv qo'llanmalarida aks etgan.

Jahon folklorshunosligida bolalar folklori o'zining xilma-xilligi bilan noyob hodisadir: unda juda ko'p turli xil janrlar mavjud bo'lib, ularning har biri bola hayotining deyarli barcha ko'rinishlarini o'zida ifoda etgan. Bolalar folklori har bir janrining o'z tarixi va maqsadi bor. Ular orasida qadimgi davrlarda yaratilganlari ham bor, bolalar o'yini va ko'ngil ochish uchun mo'ljallanganlari yoki biror narsani o'rgatish, ayrimlari esa kichkina odamga kattalar dunyosida moslashishga yordam beradigan mazmundagilari ham bor.

Bolalar folklori — og'zaki ijod namunalari. Yuqorida keltirganimizdek, bolalar folklori bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. O'zbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar,

¹ Eshniyozova G. Folklorshunoslik va etnografiyaning fan sifatida shakllanish tarixi // "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8. - B.487

² Mahmud Qashgariy. Devonu lug'otit turk. 1-jild. -Toshkent 1960.B.-445-452.

tez aytish, topishmoq, maqol, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalama, masharalama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda Bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932-yildan nashr etila boshlagan. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachiq va erkalamalar onalar mehr-muhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topgan. Bolani belash, o'tqazish, atak-chechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toy-toy", "Bordi-bordi" va boshqa ovutmachiqqlar aytiladi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bog'liq. "Boychechak", "Oftob chiqsa olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och"³ kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. "Bu bog'chada olisha", "Zuvzuv borag'on", "Chamandagul", "Oq sholi, ko'k sholi" va boshqa qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti harakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi.

O'yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chambar", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" degan topishmoqdan boshlaydi.

Aniq farqlarga qaramay bolalar va kattalar folklori o'rtasida chegara ularning tarixiy va funksional davriga mos qilib belgilanadi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan alla qo'shiqlari bolalar folkloriga tegishli deb bilinsa, boshqalar ularni kattalar folkloriga moslashtirilgan deb hisoblaydi. Yana shu bilan birga, topishmoqlar, qo'shiqlar, ertaklar kabi janrlar borki, ular teng ravishda ham kattalar, ham bolalar folkloriga tegishlidir.

Bolalar muhitiga o'tish jarayonida, o'zlashgan ayrim folklor matnlari bolaning psixikasiga muvofiq o'zgartiradi. Ular ham informatsion, ham didaktik va ko'ngilochar funksiyalarni bajaradilar. Bolalar folklorining ko'plab asarlari bolalarga shu qadar uzoq vaqt o'tdiki, uning dastlabki variantlari hatto unutildi. Shuning uchun janrlarni ularning tarixiy kelib chiqishini hisobga olgan holda o'rganish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sarimsoqov.B. Maqollar. //O'zbek folklori ocherklari. 3 tomlik, 1-tom.T. "Fan", 1988.
2. Topishmoqlar, O'zbek xalq ijodi, Ko'p tomlik, T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.

³ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. (Elektron manba: https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_folklori)

3. Madayev O.Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. T.: «Sharq», 2001.
4. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi (o'quv qo'llanma). Toshkent – 2007-B.4
5. Mahmud Qashqariy. Devonu lug'otit turk. 1-jild. –Toshkent 1960.B.-445 - 452.
6. Musurmonov E. R. Bolalar folklori, - Samarqand: SamDU, 2001, - 106 b. (O'zbek xalq og'zaki ijodi: - 1) B.6
7. Ushinskiy K. Sobraniye sochineniy . tom7 . Rodnoe slovo . God 3-y . Iz - vo Akademii pedagogicheskix nauk . M-L. 1949, 361-s.



**INNOVATIVE
ACADEMY**